

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**YO‘LDOSHEV RUSTAM ELMURODOVICH**

**DINAMIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TALABALARNI**  
**PEDAGOGIK TADQIQIY FAOLIYATGA TAYYORLASH**  
**METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Yo'ldoshev Rustam Elmurodovich**  
Dinamik modellashtirish asosida talabalarni pedagogik tadqiqiy faoliyatga  
tayyorlash metodikasini takomillashtirish ..... 5

**Йулдошев Рустам Элмуродович**  
Совершенствование методики подготовки студентов к педагогическо-  
исследовательской деятельности на основе динамического моделирования.23

**Yuldoshev Rustam Elmurodovich**  
Improving the methodology of preparing students for pedagogical research  
activities based on dynamic modeling .....47

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**  
Список о опубликованных работ  
List of published works.....50

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**YO‘LDOSHEV RUSTAM ELMURODOVICH**

**DINAMIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TALABALARNI  
PEDAGOGIK TADQIQIY FAOLIYATGA TAYYORLASH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.Phd/Ped5173 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Shodiyev Rizamat Davronovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Olimov Shirinboy Sharopovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor.

**Soatov Asadulloh Jabborovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:180100, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: qardu@mail.ru). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 217-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:180100, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: qardu@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi  
(2024 - yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**SH.R.Turdiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari,  
p.f.d. (DSc), professor

**I.B.Kamolov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
p.f.d. (DSc), professor

**SH.U.Nurullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi,  
p.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bitiruvchilarni tayyorlashga bo'lgan yondashuvlarni o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor ish beruvchilarning kadrlar tayyorlashdagi ishtirokini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Unga ko'ra Oliy ta'lim muassalari oldiga ta'lim dasturlarini kasbiy soha real shart-sharoitlariga yuqori darajada yaqinlashtirish vazifasi qo'yilgan. Zamon talablariga ko'ra odatda sohalarning shiddat bilan rivojlanishi mutaxassisni to'liq tayyorlash davriga nisbatan tezkor amalga oshishi kuzatilmoqda. Bundan kelib chiqadiki, kadrlarni tayyorlash tizimi yangilanib borayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va ishlab chiqarish shart sharoitlariga tezda moslashish imkoniyatlarini yaratib borishi lozim.

Jahon ta'lim tizimi makoniga integratsiyalashuv jarayonlari magistratura bitiruvchilariga ham bo'lgan talablarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi. Ma'lumki magistrlar nostandart muammolarni hal etishda o'zlashtirgan bilimlarini anglangan holda tadbir etish olishlari lozim. To'la bo'lmagan yoki chekli ma'lumotga ega bo'lgan holatda muammoni hal qila olish xususiyatiga shu bilan birga kommunikativ, boshqaruvchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Turli xalqaro kelishuvlar, jumladan Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Ta'lim barcha uchun (Education For All (EFA)) va kasbiy malakalar to'g'risidagi Lissabon Konvensiyalarida ikki bosqichli oliy ta'lim orqali malakali mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda magistrnlarni tayyorlash faoliyatiga alohida ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, yuqori malakaga ega mutaxassislarni tayyorlash uchun pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil qilish zarurligi qayd etib o'tilgan. Bu qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun magistrnlarni tayyorlashda tez moslashuvchan dinamik tizimni yaratish lozim bo'ladiki uning asosini raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlash prinsiplari tashkil etishi lozim. Shunga ko'ra mamlakatimizda "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"<sup>1</sup> masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-son

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni.

“Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Turli xil fanlarni o‘rgatish samaradorligini oshirishda foydalanishning ilmiy, nazariy-metodik asoslari va oliy ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni isloh qilish muammolari hamda ularni yechimlari ustida olib borilgan tadqiqot ishlari mamlakatimiz olimlaridan R.H.Djo‘rayev, S.Q.Qahhorov, U.SH.Begimqulov, R.D.Shodiyev, Q.SH.Tursunov, Sh.O‘.Nurullayevalar tomonidan o‘rganilgan.

Pedagogika ta’limini nazariy va amaliy rivojlanishida MDH mamlakatlari olimlaridan S.Y.Batishev, N.S.Gluxanyuk, E.F.Zeyer, P.F.Kubrushko, V.S.Lednev, B.A.Sokolov va N.YE.Erganovalar katta hissa qo‘shishgan. Ularning tadqiqotlari natijalari kadrlar tayyorlashning oliy ta’lim tizimini islohatlari bevosita bog‘liq tarqda olib borilgan.

Oliy ta’lim tizimida ikkinchi darajaning maqsadga muvofiqligi ustida V.I.Baydenko, V.D.Shadrikov va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Magistrnlarni tayyorlash tizimida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va bu ularning tayanch faoliyati ekanligi ustida L.K.Naumov, YE.D.Telmanov, R.I.Popov, Y.V.Solyanikov, M.A.Fedorovlar tadqiqotlar olib borganlar.

Magistrnlarni tayyorlash ustida o‘tkazilgan tadqiqot ishlari muhim ekanligiga qaramasdan, magistrnlarni dinamik modellashtirish asosida tadqiqiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan muammoga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Farg‘ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejalari asosida PZ-20170930223-raqamli “Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** ilmiy-pedagogik ta’lim jarayonini dinamik modellashtirish asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

magistrnlarni tayyorlashdagi xorijiy va mamlakatimizda olib borilgan tadqiqot ishlari hamda tajribalarni atroflicha tahlil etish;

talabalarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini dinamik modellar asosida tashkil etishga doir yondashuvlarni tahlil etish;

magistrantlarni samarali ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishga tayyorlash

jarayoni modelini dinamik yondashuv asosida takomillashtirish;

talabalarni dinamik modellashtirish asosida ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish hamda tajriba-sinov ishlari davomida samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida magistrantlarni ilmiy-pedagogik faoliyatga dinamik tayyorgarligini amalga oshirish jarayoni tanlab olindi.

**Tadqiqot predmeti** dinamik modellashtirish asosida magistrantlarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, shakli, metod va vositalaridan tashkil topgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini bajarishda nazariy tadqiqot metodlari (nazariy tahlil, qiyosiy tahlil) empirik tadqiqot metodlari (kuzatish, suhbat, anketa so'rovlari, pedagogik eksperiment) hamda matematik statistik tahlil usullaridan foydalaniladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

oliy ta'limda ikki bosqichli ta'lim tizimini joriy etishning metodik aspektlari akademik sohaga doir amalga oshiriladigan transmilliy ta'lim standartlarni tatbiq etish, ta'lim subektlari mobilligini ta'minlash, mutaxassisliklarni verifikatsiyalash, ECTS (European Credit Transfer System) ni tatbiq etish kabi xalqaro tajribalarni diversifikatsiyalash asosida aniqlashtirilgan;

talabalarni pedagogik tadqiqiy faoliyatga tayyorlash jarayoni mazmuni dinamik modellashtirishning evolyutsion xarakterdaligi belgilarini magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash jarayoniga raqamli transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

magistrantlarni samarali tadqiqot ishlarini olib borishga tayyorlash jarayoni modelining texnologik komponenti talabalarni tadqiqiy faoliyatga individual ta'lim trayektoriyasi orqali tayyorlashning variativlik, konseptuallik, empiriklik tamoyillari asosida takomillashtirilgan;

talabalarni tadqiqot ishlariga tayyorlash metodikasi fundamental va amaliy pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishga doir empirik, praksimetrik, kontent tahlil kabi metodlarini strategik modellashtirish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tadqiqot muammosi tahlili va yechimiga doir nazariy hamda amaliy izlanishlar natijasida magistrnlarni ilmiy-pedagogik ta'limi jarayonini dinamik modellashtirishga doir nazariy ma'lumotlar tizimlashtirilib, shaxsga yo'naltirilgan hamda sinergetik yondashuvlarni tizimli integratsiyalash zarurat ekanligi va magistrnlarni kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishda tadqiqotchilik kompetentligini ularda shakllatirish, ta'lim mazmunining tayanch komponenti ekanligi ilmiy asoslab berildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy tadqiqot ishini bajarish davomida olingan natijalarning ishonchliligi tizimlashtirilgan nazariy qarashlarning ilmiy va metodik manbalar tahlili asosida to'plangan ma'lumotlarning qiyosiy tahliliga tayanganligi foydalanilgan yondashuvlarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, tadqiqiy faoliyatga doir tamoyillarning amaliy faoliyat bilan tavsiflanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining

ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot davomida modellashtirish, dinamik modellashtirish mazmuni, tadqiqiy faoliyatni modellashtirish tamoyillari va yondashuvlariga doir nazariy qarashlar tizimidan ilmiy tadqiqot jarayonidan foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot muammosi metodik yechimiga doir tavsiya etilgan tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining metodik va tashkiliy aspektlarini aks ettiruvchi pedagogik shartlar, talabalar tadqiqiy faoliyatini dinamik asosda tashkil etishga doir model hamda metodik ishlanmalardan oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida hamda tadqiqotchilik faoliyatida foydalanish imkoniyatlari kengligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilishi.** Talabalarni dinamik modellashtirish asosida tadqiqiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish asosida olingan natijalar asosida:

oliy ta'limda ikki bosqichli ta'lim tizimini joriy etishning metodik aspektlari akademik sohaga doir amalga oshiriladigan transmilliy ta'lim standartlarni tatbiq etish, ta'lim subektlari mobilligini ta'minlash, mutaxassisliklarni verifikatsiyalash, ECTS (European Credit Transfer System) ni tatbiq etish kabi xalqaro tajribalarni diversifikatsiyalash asosida aniqlashtirilganligiga doir xulosalardan "Xorijda ta'lim tizimi" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan № 232-484 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, ikki bosqichli oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimi xorijiy tajribalar asosida takomillashtirilishiga erishilgan;

magistrantlarni samarali tadqiqot ishlarini olib borishga tayyorlash jarayoni modelining texnologik komponenti talabalarni tadqiqiy faoliyatga individual ta'lim trayektoriyasi orqali tayyorlashning variativlik, konseptuallik, empiriklik tamoyillari asosida takomillashtirilganligiga doir ma'lumotlar PZ-20170930223 – raqamli "Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi mazmuniga singdirilgan (Farg'ona davlat universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorining ma'lumotnomasi). Natijada magistratura talabalarini tadqiqiy faoliyat davomida izlanuvchanlik va kreativliklarini yuzaga chiqaruvchi modellashtirishning imkoniyati oshgan hamda tadqiqotlar samaradorligini oshirishga erishilgan.

talabalarni tadqiqot ishlariga tayyorlash metodikasi fundamental va amaliy pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishga doir empirik, praksimetrik, kontent tahlil kabi metodlarini strategik modellashtirish orqali takomillashtirilganligi haqidagi xulosalardan "Umumiy pedagogika" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan №68-723 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etish va tayyorlash tizimi metodik tavsifi boyitilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami

16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 5 ta respublika va 4 ta xorijiy davlat jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ikki bosqichli oliy ta‘lim tizimini tashkil etishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, ushbu bobda ikki bosqichli oliy ta‘lim tizimini tashkil etishga doir xorijiy tajribalar tahlil qilingan, talabalar tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishga doir pedagogik yondashuvlar o‘rganilgan, dinamik modellashtirish tamoyillari va yondashuvlar tavsiflangan.

Oliy ta‘lim tizimini ikki bosqichda tashkil etishga doir xorijiy tajribalar tahlili tadqiqotimiz muammosini nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi. AQSH ilmiy tadqiqot hajmi va ilmiy kadrlar yetishtirib chiqarish ko‘lami bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Amerika oliy ta‘lim tizimining birinchi navbatdagi vazifasi magistrlar tayyorlashdan iborat.

Hozirgi vaqtda AQShda ta‘lim ko‘p bosqichli tarkibiy tuzilma bo‘yicha olib boriladi, ularning darajalari asosan ko‘pincha izchillikni namoyon etadi. Amerika oliy ta‘lim muassasalari tomonidan taqdim etiladigan akademik darajalar to‘rttani tashkil etadi. Oliy ta‘limning birinchi akademik darajasi – bakalavr darajasi ikki ko‘rinishga ega - fanlar bo‘yicha bakalavr va mutaxassislik bo‘yicha bakalavr.

Odatda AQShda bakalavrlarni tayyorlash to‘liq o‘rta ta‘lim bazasida kollej yoki universitetda to‘rt yillik ta‘limni o‘z ichiga oladi, lekin ko‘p yo‘nalishlarda 5-6 yil yoki undan ko‘proq tahsil olish talab etiladi.

Magistratura bosqichida, ya‘ni ikkinchi bosqichda ta‘lim muayyan yo‘nalishdagi ixtisoslashtirilgan amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan dastur bo‘yicha olib boriladi. Istisno tariqasida shunday magistratura dasturlari ham borki, ularning yakunida kasbiy emas, balki ilmiy-tadqiqotchi magistrlik darajasi beriladi. Odatda bakalavrlar magistr darajasini olish uchun ikki yil o‘qishlari va malakaviy ishini tayyorlashlari, ya‘ni magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashlari kerak bo‘ladi.

Magistratura dasturlari xilma-xildir, magistrlik darajasi beriladigan sohalar esa keng qamrovli bo‘lib, soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Ammo, magistrlik darajalarining aksariyati kegnaytirilgan gumanitar fanlar magistri kategoriyasiga to‘g‘ri keladi – tabiiy-ilmiy fanlar magistri yoki professional darajalardagi magistrlardir.

Magistratura ta'lim bosqichida individual ta'lim trayektoriyasini qurish jarayoni birinchi o'rinni egallaydi. Bu bilimlarni oddiy taqdim etish shaklini minimallashtirgan holda, magistraturada mustaqil ishlarning ulushini bakalavr va mutaxassislarni tayyorlashga nisbatan sezilarli darajada oshirish kerakligini shartlaydi.

Mamlakatimiz bilan o'xshashlik keltirib, shuni ta'kidlash mumkinki, oliy ta'lim tizimimizda magistratura ilmiy kadrlar tayyorlanadigan tayanch bosqich bo'lib, ularning bir qismi kelajakda yuqori malakali kadrlarga o'tish darajasida ta'lim olishni davom ettiradi. Shu sababli, bizningcha magistratlarni tayyorlashda ularda ilmiy-tadqiqot kompetentligini rivojlantirish tayanch vazifa hisoblanadi. Xuddi shunday faoliyat yo'nalishi yevropa oliy maktablari tomonidan tanlanmoqda, xususan, Fransiyada magistratlarning ilmiy-tadqiqot ishlariga katta e'tibor qaratiladi.

Fransiyada ikki turdagi magistratura dasturlarini aniq ajratish zamonaviy islohotlarning asosi hisoblanadi. Talaba o'quv dasturining boshidanoq kasbiy yoki tadqiqot yo'nalishini tanlashi kerak, lekin u o'quv dasturi davomida istasa, o'z tayyorgarlik yo'nalishini o'zgartirish imkoniyatiga egadir.

Tadqiqotchilik magistri darajasi bitiruvchiga to'g'ridan-to'g'ri doktoranturaga kirish imkonini beradi, ammo professional magistr darajasiga ega bitiruvchida ham bunday imkoniyat mavjud.

Magistratura ta'limi ikki yo'nalishga – ilmiy va kasbiy yo'nalishga bo'linishiga qaramay, ilmiy-tadqiqot ishi ikkala qism komponentlari bo'ylab o'tadi va magistraturada o'qishning ikkinchi yili deyarli butunlay ilmiy-tadqiqot amaliyotiga bag'ishlanadi: dastlab aniq bir ish joyida, keyin esa dissertatsiya tadqiqoti bo'yicha mustaqil ish shaklida bo'ladi. Bunda muhim element shundaki, magistrant ish beruvchi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, o'z ishida u aniq kasbiy muammo va masalalarni hal qilishi mumkin.

Buyuk Britaniyadagi oliy ta'lim tizimi Yevropadagi eng qadimiylaridan biri hisoblanadi. Hozirda barcha universitetlar davlatga qarashli, xususiy universitetlar mavjud emas, bu esa Angliyaning o'ziga xos jihatlaridan biridir. Oliy ta'lim tarkibi Qo'shma Shtatlardagiga qaraganda nisbatan unifikatsiyalangan. Asosiy birlik kollej (mustaqil oliy ta'lim muassasasi yoki universitetning bir qismi) bo'lib, u fakultet va kafedralarga bo'lingan.

Universitetlar uchta turdagi: bakalavr, magistr va doktorlik ilmiy darajalarni taqdim etadi. Universitet birinchi darajasi - san'at bakalavri, ikkinchisi – san'at magistri. Falsafa fanlari doktori (PhD) darajasi universitetning oliy darajasidir

Tadqiqotchilik kompetentligi - o'ziga xos qobiliyatlar to'plamini: fan sohasini yuqori darajada o'zlashtirish; zamonaviy nazariya va amaliyotning rivojlanish darajasi bo'yicha o'z xulosalarini kuzatish va shakllantirish; ilmiy tadqiqot metodlariga ega bo'lish; ilmiy muammoni yechimini topishda ijodiy qobiliyatlarni namoyon etish; ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha munozara olib bora olish kabilarda namoyon etishdir.

Magistratura bo'yicha kasbiy ta'limni amalga oshirishda davlat ta'lim standartlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetensiyalarning qariyb yetmish besh

foizi tadqiqotchilik kompetentligining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning har biri quyidagi besh guruhdan biriga tegishli bo'lishi mumkin:

- umumiy intellektual darajani oshirishga qaratilgan kompetensiyalar;
- ilmiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalar;
- kasbiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalar;
- kommunikativ sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalar;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalar.

Magistrlarni tayyorlash jarayonini tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, kompetensiyalarning faqat bir qismi o'quv mashg'ulotlari davomida shakllantirilishi mumkin, ko'pchiligini esa ilmiy-tadqiqot ishlari jarayonida shakllantirilishi samaraliroqdir. Shunday qilib, tadqiqotchilik kompetentligi magistrarni tayyorlashning tayanch komponenti hisoblanadi va ular implitsit va apikal tarzda taqdim etilishi lozim.

Faol ta'lim metodlaridan foydalanish pedagogning loyihalashtira olish faoliyatiga asosan amalga oshirilishi lozim. Ta'limning faol metodlaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini loyihalashtirishda quyidagi tamoyillarga tayanish kerak: talabanning bilish faoliyatini markazlashtirish; refleksivlik; optimallilik; ko'p omillilik; o'quv jarayonining talaba shaxsiga moslashishi.

Ma'lumki yakka tartibdagi ta'limni tashkil etish, talabalarning ta'lim yo'nalishini yaratishlarida ma'lum bir erkinligini nazarda tutadi. Talaba fanlar majmuasini yakka tartibda - o'rganish jadvalini, ilmiy tadqiqot ishlarining rejasini, tadqiqot va ilmiy-pedagogik amaliyot uchun dasturlarni, magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlash jadvalini shakllantirish huquqiga ega.

Talabanning o'rganadigan yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishini tanlashiga yordam berish uchun o'quv jarayonini noxizizqli harakatini tashkil qilish taklif etildi, ular: o'quv jarayonini mobillik va elastiklik tarzida rejalashtirish; auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarning optimal munosabatini o'rnatish; talabada mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini, amaliy faoliyatida bilimlarni mustaqil ijodiy o'zlashtirish ehtiyojlari va ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Shu bilan birga, oliy ta'limning ikkinchi bosqichini tashkil etish masalalari hali yakuniy qarorini topmagan. Ayrim jihatlarning namoyon bo'lishi, mazkur muammoni yaxlit ko'rishni hamda tizimlilikni mavjud emasligi – magistrarni tayyorlashni tashkil etish nazariyasi va metodikasining fundamental vazifalarini aniqlashtirishda bir qiymatli bo'lmagan, ko'p yo'nalishli yondashuvlar holatini yuzaga keltiradi.

Magistratura bitiruvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorligini ta'minlovchi ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish dinamikasi samaradorligining muvaffaqiyati ko'p jihatdan tahsil jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini joriy etish bilan belgilanadi. Bu har bir shaxsning o'z qadr-qimmatini, individualligini, o'ziga xosligini tan olish, uning noyob subyektiv tajribaga ega bo'lgan individ sifatida rivojlanishiga asoslanadi.

Magistrlar tayyorlash tizimini dinamik modellashtirish bo'yicha ko'rib chiqilgan yondashuvlar sinergetik yondashuv bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiqdir. Magistrlar tayyorlash tizimining sinergetik samarasi shundan iboratki,

uning aniq va mantiqiy tizimda joylashgan barcha komponentlarining yig'indisi ko'proq natija beradi.

Dinamik modelning nazariy qurilishi ideal, mantiqiy, grafik, matematik ramziy sxemalarga asoslangan bo'lishi mumkin.

Magistraturani tugatganidan so'ng, boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi magistri ta'lim sohasidagi innovatsion kasbiy faoliyatni olib borish malakasiga ega bo'ladi. Oliy ta'limning ikkinchi bosqichi bitiruvchisi o'z ta'limini keyingi bosqichda – yuqori malakali kadrlar tayyorlashda davom ettirib, ilmiy faoliyatning orttirilgan ko'nikmalarini qo'llashi va rivojlantirishi mumkin, bunda ilmiy-tadqiqot malakasi asosiy o'rin tutadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ilmiy-pedagogik ta'lim jarayonida magistrantlar dinamik tayyorgarligini amalga oshirish metodikasi”** deb nomlangan. Ushbu bobda magistrnlarni dinamik modellashtirish asosida tadqiqiy faoliyatga tayyorlash modeli ishlab chiqilgan, modelni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirilgan hamda talabalarni tadqiqiy faoliyatga tayyorlashga doir metodika mazmuni bayon etilgan.

Magistrlar tayyorlash modelini ishlab chiqishda pedagogik jarayonning dinamik tizim ekanligini hisobga olish lozim.

Dinamik tizim deganda biz keng ma'noda vaqt davomida o'z faoliyatini davom ettirayotgan va tashqi hamda ichki faktorlar ta'siri ostida doimiy ravishda holati o'zgarib turuvchi kuzatiladigan obyekttni tushunamiz .

Dinamik modellarni qurishda shuni tushunish kerakki, uning keng ma'nodagi vazifasi ta'lim jarayonlari subyektini mavjud holatdan (ya'ni bakalavriat bitiruvchisi yoki muayyan soha mutaxassisi) talab darajasidagi subyektga, ya'ni Boshlang'ich ta'lim magistrantiga aylantirishdan iboratdir. Ishlab chiqiladigan modellar mazkur vazifani samarali bajarishning muhim vositasi sifatida qaralmog'i va Boshlang'ich ta'lim magistrnlarni tayyorlashda hal etuvchi tizim bo'lmog'i lozim.


Bunday tizimni modellashtirish quyidagi bosqichlarni o'tash natijasida amalga oshiriladi:

- modellashtirishning vazifasini belgilab olish;
- model qurish;
- modelning asliyatga yaqinlik darajasini tekshirish;
- modelni yangilash.

Tadqiqot ishini bajarish davomida magistrnlarni tayyorlash jarayonining dinamik modelini ishlab chiqishga harakat qildik (1-rasm).

Mazkur model beshta komponentdan iborat tarzda tuzildi:

- maqsad komponenti;***
- mundarijaviy komponent;***
- texnologik komponent;***
- diagnostik komponent;***
- natija komponenti.***



**1-rasm. Talabalarni tadqiqiy faoliyatga tayyorlashning dinamik modeli.**

Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarida “qabul qilingan qarorlar daraxti” usuli asosida o‘z individual ta’lim trayektoriyasini belgilab olishi 1-jadvaldagi ko‘rinishda tasvirlash mumkin.

**1-jadval**


**Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda individual ta’lim trayektoriyasi**

Tadqiqotni boshlanishida mavzuni tanlash
Tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishining nazariy taxlilini amalga oshirish bosqichi
Tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishini shakllantiruvchi bosqichi
Tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishida ijodiy munosabat ko‘rsatish bosqichi
Yakuniy natijalarini nazorat qilish bosqichi
Natijalardan xulosa va tavsiyalar shakllantirish.

Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari – o‘rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlar haqida yangi ma’lumotlar olish, yangiliklarni sinovdan o‘tkazish, samaradorligini aniqlash va ta’lim-tarbiya sohasiga yangiliklarni tatbiq etish uchun tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida amalga oshiriladigan qator tizimli harakatlar majmuidan iborat.

Pedagogik tadqiqotlarda metodlarning to‘g‘ri tanlanganligi jarayonning samarali tashkil etilishiga va natijalarning ijobiy bo‘lishi hamda pedagogik sohasiga doir yangi imkoniyatlar ochilishiga yordam beradi.

Pedagogika sohasida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot metodlari xilma-xil bo‘lib, ular quyidagicha tasniflanadi:



**2-rasm. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining manbasiga ko‘ra tasnifi.**

Pedagogika sohasida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar jarayonining turli bosqichlarida mos ravishda pedagogik tadqiqot metodlari tanlab olinadi.

Jumladan pedagogik tadqiqotlarning aniqlashtiruvchi va asoslovchi bosqichlarida nazariy tadqiqot metodlari – analiz, sintez, induktiv va deduktiv tahlil, nazariy manbalar tahlili kabi metodlardan, empirik tadqiqot metodari – kuzatish, so‘rovnoma, empirik ma’lumotlar to‘plash, tajribalarni o‘rganish kabi metodlardan foydalaniladi.

Pedagogik eksperimentning ikkinchi – asosiy bosqichida maxsus pedagogik tadqiqot metodlari, kuzatuv, empirik kuzatuv natijalarini tahlil qilish, test so‘rovlari, reyting baholash, so‘rovnoma kabi metodlardan foydalaniladi.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida umumlashtirish, qiyosiy tahlil, matematik-statistik tahlil kabi metodlardan foydalaniladi.

Nazariy metodlar tadqiqot muammosiga doir adabiyotlarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, muammolarni aniqlash, tadqiqot g‘oyasini shakllantirish, to‘plangan axborotlarni baholash, mantiqan tizimlashtirishga yordam beradi. Shuningdek ilmiy tadqiqotlarning nazariy metodlari adabiyotlar bilan ishlash jarayonida konspektlashtirish, havolalar olish, annotatsiya tayyorlash, biografiya tuzish, tahlillar tayyorlash kabi ish usullarini ham qamrab oladi.

Empirik tushunchasi lotin tilidan olingan bo‘lib, tajriba va kuzatuvga asoslangan, hissiy bilish asosida o‘zlashtiriladigan bilimlarni nazarda tutadi. Empirik metodlar kuzatuv, tajriba, tahlil kabi metodlarni o‘z ichiga oladi.

**Pedagogik kuzatish metodi.** Ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan tashxislovchi metodlar sirasida pedagogik kuzatish muhim o‘rin tutadi.

Pedagogik kuzatish metodi – ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilishi zarur bo‘lgan pedagogik muammoni aniqlash, uning yechimini topish maqsadida qo‘llaniladigan usul.

Metodni qo‘llashda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq tahlil qilinadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. kuzatish metodining quyidagi turlari farq qilinadi: *muddatli kuzatuv; tasodifiy kuzatuv; bevosita kuzatuv; bilvosita kuzatuv; neytral kuzatuv; ishtirokchi sifatida kuzatuv.*

**Pedagogik eksperiment metodi** (lot. “experimentum” – sinov, sinash, tajriba qilib ko‘rish) – mavjud pedagogik muammoning yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in’ikosiga ega bo‘lishi, ularning samaradorligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladigan usul.

Metodning ilmiy-amaliy ahamiyati muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in’ikosiga ega bo‘la

olishi va ularning samaradorligini aniqlash uchun keng imkoniyatlarni yaratishda aks etadi.

Pedagogik eksperiment bir necha turga bo'linadi. Ular: tabiiy tajriba, laboratoriya tajribasi, tajriba ishi.

**Kontent-tahlil metodi.** Zamonaviy pedagogik diagnostikada yana bir nisbatan yangi metod – kontent-tahlil metodidan ham foydalaniladi.

Kontent-tahlil metodi (inglizcha “contens”–mazmun) – hujjatlarda aks ettirilgan turli dalillar va an'analarlarni aniqlash yoki o'lchash maqsadida ularning mazmunini sifat hamda miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish usuli.

Ushbu metodning o'ziga xos xususiyati shundaki, u hujjatlarni ijtimoiy ahamiyatlilik nuqtai nazaridan o'rganishga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlarda kontent-tahlil metodi asosiy metod sifatida turli, masalan, gazetaning siyosiy yo'nalishini, muayyan ijtimoiy guruhning jamiyatdagi mavqeini o'rganish uchun matnning mazmunini tahlil qilish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, ushbu metod pedagogik tadqiqotlarda qo'shimcha metod sifatida ham foydalaniladi.

Aksariyat holatlarda kontent-tahlilning obyektlari sifatida radio, televideniye hamda matbuot xabarlari, uchrashuvlarga oid bayonnomalar, rasmiy va norasmiy xatlar, mas'ul tashkilotlar tomonidan chiqarilgan buyruqlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, shuningdek, intervyu hamda ochiq anketalarning ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarda ushbu metodlardan quyidagicha foydalaniladi:

Masalan, “Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ta'limga shaxsiy-qadriyatli yondashuvini tashkil etish metodikasi” mavzusida tadqiqot ishini amalga oshirishda quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalaniladi:

Nazariy tadqiqot metodlari – ilmiy va metodik hamda psixologik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;

Empirik tadqiqot metodlari – kuzatish, test, anketa so'rovlari, pedagogik eksperiment:

Statistik metodlar – matematik statistik tahlil, qiyosiy tahlil, grafik tahlil.

**Diagnostik metodlar.** Tadqiqot jarayonida belgilab olingan asosiy g'oyani tekshirish maqsadida, tadqiqotning asosiy farazini sinovdan o'tkazish maqsadida respondentlarning turli ko'rsatkichlarini diagnostika qilish maqsadida qo'llaniladi. Psixologik tadqiqotlarga doir bir qator diagnostik metodikalash ishlab chiqilgan, ushbu metodikalardan modifikatsiyalangan holda pedagogik tadqiqotlarda ahamiyatli foydalanish mumkin.

Miqdor va sifat tahlil metodlari. Ushbu metodlarning boshqa metodlardan asosiy farqi miqdor o'zgarishlari tahliliga doir metodlar “qancha?”, “necha marta?”, “qancha vaqtda?” kabi savollarga javob olish imkonini beradi. Sifat o'zgarishlariga doir metodlar “nima uchun?”, “qanday?”, “nima sababdan?” kabi savollarga javob topishga yordam beradi. Miqdor o'zgarishlariga doir metodlar yordamida sxemalar, grafiklar tuziladi, matematik-statistik tahlil uchun ma'lumotlar to'planadi.

Tadqiqotchilarni ilmiy izlanishga tayyorlash “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fanini dinamik modellashtirish asosida dasturi ishlab chiqildi.

Ushbu dastur mazkur fanni o‘qitish bilan birga talabalarni tadqiqiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida talabalarga beriladigan topshiriqlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni ishlab chiqishda dinamik va tadqiqiy yondashuvga ustuvorlik berishga harakat qildik. Quyida kichik guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan topshiriqlar tizimini keltirib o‘tamiz.

### **Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar tizimi**

#### ***Topshiriq №1***

***Pedagogik eksperiment obyekti:*** Bola xulqidagi o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi omillar.

#### ***Topshiriq:***

1. Bolani individual kuztauv dasturini ishlab chiqing.
2. Bolani bevosita kuzatuv jarayonini rejalashtiring.
3. Bolani bilvosita kuzatuv uchun kuzatuv subyektlarini tanlang va kuzatuv subektlari uchun faoliyat dasturini ishlab chiqing.

#### ***Topshiriq №2.***

***Pedagogik eksperiment obyekti:*** Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z ustida ishlash jarayoni.

#### ***Topshiriqlar:***

1. Tanlangan muammo yuzasidan referat mavzusini ishlab chiqing va tegishli manbalarni tanlang.
2. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z ustida ishlash jarayoni tadqiqiga bag‘ishlangan kurs ishi mavzusini ishlab chiqing.
3. Kurs ishini bajarish uchun kuzatuv rejasini ishlab chiqing.
4. O‘qituvchi faoliyat turlariga tasir etuvchi omillarni aniqlashtirish.
5. O‘qituvchining kasbiy rivojlanganlik ko‘rsatkichlarini darajalashtiring.

**“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni o‘tkazish metodikasi”** deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobida tadqiqot muammosiga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni bayon etilgan.

Bitiruvchilardagi ishlab chiqilgan mezonlar va tadqiqotlar natijasida olingan ko‘rsatkichlar yordamida aniqlangan tadqiqotchilik kompetensiyalarining shakllanganlik darajasi kasbiy ta’lim magistrlerini tayyorlash tizimi dinamik tuzilmaviy-funksional modelining samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkich sifatida xizmat qildi. Ishlab chiqilgan mezonlarning har biriga uni miqdor yoki sifat jihatdan xarakterlovchi ko‘rsatkichlarning ma’lum guruhi muvofiq keladi.

Magistrlarda tadqiqotchilik kompetensiyalarining **shakllanganlik darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonlardan** foydalanildi:

- tadqiqot ishiga nisbatan motivatsion qadriyatlarning shakllanganligi;
- ilmiy tadqiqiy faoliyatga kognitiv tayyorgarlik;
